

120. 1 ga ko'paytirish, 1 ga bo'lish

Yondosh mavzu:
O'zbekistonda tog' sayyohligi.

Ko'paytuvchi,
ko'paytma, birlik.



1. Rasmlar yonidagi ifodalar nimani anglatadi?



$$4 \cdot 2$$



$$4 \cdot 1$$



2. Agar imkoni bo'lsa, ko'paytirishni qo'shish bilan almashtiring.
Hisoblang.

$$5 \cdot 3$$

$$6 \cdot 1$$

$$10 \cdot 5$$

$$99 \cdot 1$$



Yodda tuting:

$$a \cdot 1 = 1 \cdot a = a$$

$$a : 1 = a$$



3. Hisoblang.

$$1 \cdot 4$$

$$1 \cdot 7$$

$$1 \cdot 20$$


$$1 \cdot 9$$



4. Mehmonxonada nonushtaga har bir sayyohga bir piyoladan choy beriladi. Hammasi bo'lib 49 piyola choy tarqatildi. Mehmonxonada necha nafar sayyoh bo'lgan?



5. Tog'da ikkita osma yo'l bor. Ularning har birida 9 tadan o'rindiqlar o'rnatilgan. Shu bilan birga ularning birida juft o'rindiqlar, ikkinchisida esa yakka o'rindiqlar o'rnatilgan. Har bir osma yo'lda nechta o'rin bor?



6. Tenglamalarni yeching.

$$15 \cdot x = 15$$

$$x : 5 = 0$$

$$12 : x = 12$$

$$x \cdot 7 = 0$$

$$x : 6 = 1$$

$$8 \cdot x = 0$$



7. Bu mehmonxona derazasidan tog'ning ko'rinishi.



Komila badiiy to'garakda shug'ullanadi va bu tog'larni tasvirlashni xohlaydi. Komilada qanday rasm hosil bo'ldi?



8. Hisoblang.

$$6 \cdot 3 + 8 \cdot 1$$

$$5 \cdot 7 + 5 \cdot 9$$

$$4 \cdot 9 - 2 \cdot 7$$

$$10 \cdot 9 - 9 \cdot 7$$

$$(41 + 15) : 8$$

$$2 \cdot (41 - 39)$$



9. Tog'da sayyohlar tog'ga chiqish musobaqasini uyushtirishdi. Sayyohlar har bir tog' cho'qqisiga bittadan bayroq – o'z jamoalari belgisini o'rnatishdi. Agar musobaqada 9 ta jamoa ishtirok etgan bo'lsa, hammasi bo'lib nechta bayroq o'rnatilgan?